

## Bolalar Kitobxonligi Va Mediya Muhitida Bolalik Konseptining Ifodalanishi

*Eraliyeva Zamira Rasuljonovna*<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalik konsepti haqida tushuncha. Bolalik konseptining ifodalanishi va badiiy tafakkurini rivojlantirishda bolalar kitobxonligini takomillashtirish yuzasidan ilmiy qarashlar, tarbiyachi pedagoglar uchun tavsiyalar, metodlardan na'munalar va natijalari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Konsept, mediya, mental, etnik, assotsiativ, emotsional, kognitiv-semantik, lingvokulturologik, verbal.

Asrlar silsilasida bebaho qadriyat sifatida muhim o'ringa ega bo'lgan farzand ta'lim-tarbiyasi xali hanuz o'z dolzarbligini yo'qotmagan. O'zbekiston xalq shoiri A. Oripov: "Bilmam, qanday inson bo'lgan Alisherning onasi", deb yoki H. Olimjonning "Ko'p ertak eshitgandim, so'zlab berardi buvim" satrlarida qadimdan o'zbek ayollarining ziyoli va ma'rifatli bo'lganligiga ishora qilinadi. Shu bois, o'zbek xalqining lisoniy olam manzarasida ham oila, ayol va bola konsepti bir-biriga uyg'un tarzda, o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, konsept olam idrokida faol harakatlanuvchi, uning ongida mental tarzda namoyon bo'luvchi, til sohiblarining dunyoqarashi, milliy-etnik xususiyatlarini o'zida aks ettiruvchi birlikdir. Tushuncha- predmetlar va hodisalar haqidagi fikr bo'lib, ularning umumiy va ahamiyatli belgilarini aks ettiradi, konsept esa biror jihati bilan umumiylik kasb etgan tushunchalar yig'indisidan iborat bo'lib, shunday bir g'oyaki, u nafaqat mavhum, balki aniq-assotsiativ va emotsional-baholovchi belgilarni ham qamrab oladi.

Hozirgi zamon tilshunosligida "konsept" termini dunyo haqidagi bilimlarni namoyon etish shakllaridan biri sifatida ishlatiladi. "Konsept" atamasini fanga dastlab o'rta asrlar konseptualizmi davridagi U. Gobbs, P. Abelyar, U. Okkam kabi faylasuflar olib kirgan bo'lib, ularning fikricha, konsept-narsalarning belgilarini umumlashtiruvchi va ong tomonidan uning ichki foydalanishi uchun gavdalantirilgan, o'zida muhim va dolzarb axborotni jamlagan universal omillardir. Shu kunga qadar konsept haqida turlicha fikrlar, ta'riflar va ularni o'rganishga doir turli yondashuvlar mavjud. So'nggi davrlarda o'zbek tilshunosligida ham konsept haqida muhim ma'lumotlar yuzaga kela boshladi. Bu masalada Sh. Safarov, A. Nurmonov, O'. Yusupov, A. Abuduazizov, A. Mamatov, D. Ashurova, M. Djusupov, M. Galieva, D. Agzamova, D. Xudayberganova N. To'xtaxo'jaeva B. Mengliev, Z. Xolmonova kabi olimlarning asarlaridagi fikr-mulohazalar xarakterlidir. Sh. Safarovning fikricha, konsept tafakkur birligi bo'lib, uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi yotadi<sup>2</sup>. Shuningdek, konseptning ko'p qatlamli va ko'p qirrali mental tuzilma ekanligi tilshunoslar tomonidan e'tirof etilgan. Chunki u bir vaqtning o'zida psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etadi, kognitiv va lingvokulturologik tadqiqot ob'ekti sanaladi. Konseptning yadro verbalizatorlarini o'rganishda so'zning asosiy motivatsiyasi sifatida ichki shaklga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu haqda Potebnya "so'z, aslida, uning mazmuni uchun olingan butun fikrni emas, balki uning xususiyatlaridan faqat bittasini ifodalashi"<sup>3</sup>ni ta'kidlaydi.

U yoki bu konseptni tahlil qilishda konsept ifodalovchi so'z (verbalizator) etimologiyasining ichki shakli va uning belgilangan konsept mazmuniga qanday bog'liqligini aniqlash kerak bo'ladi. "Bolalik" konseptining markaziy va perefirik lug'aviy birliklari haqida fikr yuritganda, "Sog'lom bola" birikmasi siyosiy, ilmiy, badiiy va diniy diskursda namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Qator

<sup>1</sup> Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

<sup>2</sup> Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik. –Jizzax: "Sangzor" nashr., 2006. b–16

<sup>3</sup> Potebnya A.A. Мысл и язык // A. A. Potebnya. Estetika i poetika. – M.: Iskustvo, 1976. – S.114.



yillarning Davlat dasturlarida sogʻlom bolani rivojlantirishga qaratilgan kompleks vazifalar mazkur birikma ostida bola shaxsining jismoniy va aqliy imkoniyatlarini rivojlantirish mazmun-mohiyatini toʻlaligicha ochib berishga xizmat qiladi. “Sogʻlom bola” shiori kelajak avlodning, oʻsib kelayotgan avlodning ruhiy-maʼnaviy va jismoniy jihatdan sogʻlom boʻlishlari va sogʻlom oʻsishlari uchun qaygʻurish desak, xato qilmagan boʻlamiz. “Sogʻlom bola” shiori har bir yurtning, millatning, xalqning asosiy tashvishlaridan biri boʻlmogʻi lozim. Chunki kelajak avlod har bir millatning, har bir davlat, yurt, el, xalqning kelajagini belgilaydigan avloddir. Ular ana shu xalq, yurt, davlat va elning umid gʻunchalaridir.”<sup>4</sup>

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan ishlashda badiiy soʻz katta oʻrin tutadi. Bolalar xalq ertaklari, sheʼr, hikoyalar eshitishni yaxshi koʻradilar. Bolalar adabiyoti, avvalo oʻzining qiziqarli mazmuni, badiiy obrazlarining goʻzalligi, tilning ifodaliligi, sheʼriy soʻzlarning musiqaviyligi bilan bolalarga quvonch baxsh etadi. Ayni vaqtda u bolalarga tarbiyaviy taʼsir koʻrsatadi. Badiiy adabiyotning qimmatini bolaning har bir jihatdan oʻsishiga taʼsir koʻrsatishidir. Badiiy adabiyot bolaga jonajon oʻlka tabiatining kishilarning mehnati va hayotini, ularning qilayotgan ishlari va koʻrsatayotgan qahramonliklarini, bolalar hayotidan olingan voqealar, bolalarning oʻyinlari, ermaklari va qilayotgan mehnatlarini himoya qilib beradi. Kishilarning ichki dunyosini yoritib, ularning xarakterlari, his-tuygʻulari, xatti-harakatlarini, shuningdek, badiiy adabiyot asarlari bolani hayajonlanishga, asar qahramonlariga achinishga yoki ularni qoralashga majbur qiladi. Eng yaxshi badiiy adabiyot asarlari bolalarda biror narsaga yaxshi-yomon, adolatli-adolatsiz, toʻgʻri-notoʻgʻri deb, oʻzlariga xos bir yordam beradi.

Tarbiyachi har bir yosh guruhida bolalarni juda koʻp bolalar badiiy adabiyoti asarlari bilan tanishtirib borishi lozim. Tarbiyachi bolalarda adabiy asarni idrok qilish koʻnikmasini tarkib toptiradi. Bola asarni tinglayotib, uning mazmunini oʻzlashtiribgina qolmay, balki muallif tasvirlayotgan his-tuygʻular va kayfiyalarni his etishi ham lozim. Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida asarning mazmuni va formalarini analiz qilishning baʼzi elementlari ham tarkib toptiriladi. Har bir bola maktabga oʻtish paytida asarda hikoya qilingan asosiy qahramonlarni aniqlay olishi, ularga nisbatan oʻz munosabatini (kimning nima uchun yoqqanini) ayta bilishi, asarning formasini aniqlay bilishi (sheʼr, hikoya, ertak) lozim. Bolalarda birgalashib eshitish malakalarini, uyushqoqlik bilan savollarga javob berish va oʻqib berilgan asar asosida savollar berish, illyustratsiyani diqqat bilan koʻzdan kechirish, kitobga yaxshi munosabatda boʻlish koʻnikmalarini tarbiyalash zarur. Bogʻcha bolalarda kitobga berilish, bilishga qiziqish, tinglangan asar haqidagi taassurotlarni oʻrtoqlashish istagi va koʻnikmasini tarbiyalashi lozim.

Maktabgacha taʼlim —Ilk qadam davlat dasturida koʻrsatilgan asarlarning koʻpchiligi bolalar adabiyotining oltin fondini tashkil etadi. Bunda tarbiyachi bosmadan chiqayotgan kitoblarni kuzatib borishi, jurnallardagi tanqidiy maqolalarni oʻqishi va bolalar kitoblarining muhokama etilishida ishtirok etishi kerak. Tarbiyachi har bir yosh guruhida bolalarni juda koʻp bolalar badiiy adabiyoti asarlari bilan tanishtirib borishi lozim. Bolalar bogʻchasining muhim vazifasi bolalarning asarlar mazmunini oʻzlashtirib olishlariga, ularni toʻgʻri tushunishlariga erishishdir. Bolalar asarlarning bir qismini yod olishlari, bir qismini esa matnga yaqinroq qilib aytib bera olishlari lozim.

Bogʻcha tarbiyasini olgan bola bilan bogʻchaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi oʻrtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas. Shuning uchun ham biz maktabgacha taʼlim tizimini qayta koʻrib chiqish masalasini davlat siyosati darajasiga koʻtarib, bu borada katta ishlarni boshladik. Agar shu ishni har tomonlama puxta oʻylab amalga oshirmasak, butun taʼlim tizimida sifat oʻzgarishiga erishishimiz, taʼlimning uzluksizligini taʼminlashimiz qiyin boʻladi, deya taʼkidladi Shavkat Mirziyoyev.

Shu fikrlardan kelib chiqib, aynan bolalar kelajagini yaratadigan, erkin, ijodiy fikrlay oladigan, barkamol shaxsni tarbiya qiladigan shaxs bu albatta, tarbiyachidir.

Hozirgi paytda mana shunday kompetentli tarbiyachiga talab ortmoqda. Kompetensiya (ingl. “competence”- “qobiliyat”) – har qanday faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori

<sup>4</sup> Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Sogʻlom bola. – Toshkent: “Hilol” nashr., 2021. b–5



darajadagi kasbiy ko‘nikma va malakaga, mahorat va iqtidorga egalik demakdir. Kompetentlilik-ya’ni kompetensiyaga egalik har qanday shaxsning o‘zi faoliyat olib borayotgan sohada samarali ish yuritishi uchun zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikma, malaka va tajribaga egaligi, ayni zamonda bu sifatlarning shaxslik fazilatlar (yuksak madaniyatlilik, keng dunyoqarash, baland saviya, mustaqil fikrlay olish va h.k.lar) bilan uyg‘unligini anglatuvchi tushunchadir.

**Zamonaviy texnologiyadan foydalanish:** Tarbiyachilar bolalar uchun bugungi kunda kitobga oshnolik holatlarini pastligini hisobga olgan holda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishlari lozim. Aytib bermoqchi bo‘lgan hikoya, she‘r, yoki masallarni video yoki audio shaklda ham taqdim etishlari mumkin. Bunda badiiy adabiyotda tanishtirilishi ko‘zda tutilgan hikoya yoki ertakning elektron namoyishini tashkil etishi, tarbiyalanuvlarda aniqroq tassavurning xosil bo‘lishiga erishishlari aniqroq bo‘ladi.

**Mutolaa burchagi qilish:** Bolalarni chalg‘itmaydigan, tashqi shovqin-surondan holi bo‘lgan mo‘jazgina “uycha” yoki burchak qilib berish ularning kitobga bo‘lgan qiziqishini yanada oshirishi va aynan shu joyda ma‘lumotlarni berish ular uchun ancha yoqimlilik tuyg‘usini shakllantirishiga erishish mumkin. Ana shunday mo‘jazgina chodirchalar ham bolalar uchun “uycha” sifatida xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, bu burchak tabiat qo‘ynida tashkil etisa, yana ham samarali natija beradi.

**Bolalarni tez-tez tabiat sayrlariga olib borish:** Tarbiyalanuvchilarga sayrlar (ekskursiya) orqali tabiat haqidagi bilimlarini kengroq va amaliy tarzda shakllanishiga yordam beradi. Sayr jarayonida ular yoqtirgan adabiyotlarni ham hamroh qilishlik, ulardan parchalar o‘qib yoki og‘zaki hikoya qilib berishlik ham o‘zining ijobiy samarasini beradi. Sayr jarayonida fasllar haqida, ularning ovziga xos jihatlari, tabiat o‘simliklari, hayvonlar haqidagi ertak yoki hikoyalar juda qo‘l keladi.


#### **“Kompyuterli didaktik metod”.**

Namanagan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani Maktabgacha ta‘lim bo‘limiga qarashli 5- sonli Maktabgacha ta‘lim tashkiloti “Qaldirg‘och” nomli (A) kichik guruhda 17 nafar bolalarda o‘tkazildi.

Kompyuterli didaktik o‘yinlar maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ta‘lim tarbiya jarayonida amalga oshirishga, jumladan, elementar matematik tasavvurlar yani bolalar bilan raqamlar bilan tanishib chiqish va ular bilan birgalikda gul yaproqchalari bilan sonlarni hosil qilamiz, buyumlar, ularning rangi, shakli va o‘xshash obyektlarni o‘rganishga yordam beradilar. Kompyuterli didaktik o‘yinlarning o‘ziga xos pedagogik va psixologik jihatlari mavjud bo‘lib, hozirgi kunda ular to‘la o‘rganib chiqilmagan. Quyida shular to‘g‘risida ba‘zi ma‘lumotlarni keltiraman.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarda multimedia texnologiyalari asosida kompyuterli ta‘limiy va rivojlantiruvchi o‘yinlardan ham foydalanish mumkin. Bu o‘rinda shuni ta‘kidlash kerakki, kompyuterli ta‘limiy va rivojlantiruvchi o‘yinlar didaktikaning barcha qonun va qoidalariga rioya qilgan holda o‘tkaziladi. O‘yinlarni o‘tkazish shakllari mashg‘ulotlar, o‘yin-mashq va dam olish o‘yin shakllaridan iborat. Multimediali ta‘limiy va rivojlantiruvchi o‘yinlar didaktik o‘yinlar tarkibiga kiradi va Maktabgacha ta‘lim tashkilotlardagi ta‘lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishga qaratilgandir.





“Qaldirg‘och” guruhida bu metoddan foydalandik Kompyuterli didaktik o‘yinlar ta‘lim tarbiya jarayonida amalga oshirishga, jumladan, elementar matematik tasavvurlar yani bolalar bilan raqamlar bilan tanishib chiqish va ular bilan birgalikda gul yaproqchalari bilan sonlarni hosil qilamiz, buyumlar, ularning rangi, shakli va o‘xshash obyektlarni o‘rganishga yordam beradilar. Kompyuterli didaktik o‘yinlarning o‘ziga xos pedagogik va psixologik jihatlari mavjud bo‘lib, hozirgi kunda ular to‘la o‘rganib chiqilmagan. Quyida shular to‘g‘risida ba‘zi ma‘lumotlarni keltiraman. Bunda bolalar qizishlari yanada ortdi va samarali natijaga erishdik.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan rivojlanish markazlarida bolalar nutqini takomillashtirish yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalarini keltirib o‘tamiz.

Asosiy e‘tiborni bolalar **nutqiy kompetensiyalarining** shakllantirilishiga qaratdik, ya‘ni bunda bolalarning yangi so‘zlarni o‘zlashtirishi, rasmga qarab gapira olishi, savollarga javob berishi, tinglab tushunishi, o‘z nutqida ot, sifat, son, fe‘l kabi so‘zlarni qo‘llay olishlariga qaratdik.

#### Savol-javoblar tahlili

T/r	Savollar	Ha	Yo‘q	Bazida
1	Bolalar nutqini rivojlantirish yangi so‘zlar hisobiga amalga oshadimi?	55 (91 %)	0(0 %)	5 (8 %)
2	Nutqni takomillashtirishda otanalarning yordami kerakmi?	30 (50 %)	11 (18 %)	19 (31 %)
3	Nutqni rivojlantirishga yordam beradigan ko‘rgazmali qurollar yetarlimi?	25 (42 %)	30 (50 %)	5 (8 %)
4	Til imkoniyatlarini o‘rgatishda tarbiyachiga kreativlik kerakmi?	42 (70 %)	8(13 %)	10 (16 %)
5	Mashg‘ulotlarda bolalarni faollashtiruvchi metodlardan foydalanisizmi?	52 (86 %)	5 (8 %)	3 (5 %)

So‘rovnomada ishtirok etgan respondentlarning barchasi ya‘ni 60 nafari ham maktabgacha ta‘lim muassasalarining tarbiyachilari bo‘lib, ular ixtiyoriy ravishda savollarga javob berdilar. Bolalar nutqini rivojlantirish yangi so‘zlar hisobiga amalga oshadimi?, degan savolga respondentlarning 55 nafari – 91 % i “ha”, 0 nafari “yo‘q”, 5 nafari – 8 %i esa “ba‘zida” degan javobni beradilar.



Nutqni takomillashtirishda ota-onalarning yordami kerakmi?, degan savolga respondentlarning 30 nafari – 50%i “ha”, 11 nafari – 18 %i “yo‘q”, 19 nafari – 31 %i “ba’zida” degan javobni berdilar.

Nutqni rivojlantirishga yordam beradigan ko‘rgazmali qurollar yetarlimi? degan savolga ishtirokchilarning 25 nafari – 42 %i “ha”, 30 nafari – 50 %i “yo‘q”, 8 nafari – 8 %i “ba’zida” degan javobni berdilar,

Til imkoniyatlarini o‘rgatishda tarbiyachiga kreativlik kerakmi?, degan savolga respondentlarning 42 nafari – 70 %i “ha”, 8 nafari – 13 %i “yo‘q”, 10 nafari – 16 %i esa “ba’zida” deb javob berdilar.

Mashg‘ulotlarda bolalarni faollashtiruvchi metodlardan foydalanasizmi? degan savolga respondentlarning 52 nafari – 86 %i “ha”, 5 nafari – 8 %i “yo‘q”, 3 nafari – 5 %i esa “ba’zida” degan javobni berib, o‘zlarining bolalarga og‘zaki ijod namunalari o‘rgatishdagi faoliyati yutuq va kamchiliklari haqida ma’lumot berib o‘tdilar.

Tahlildan shu narsa ko‘rinib turibdiki, mashg‘ulotlarini interaktiv yuqori saviyada tashkil qilayotgan tarbiyachilar bilan bir qatorda o‘z ustida ishlashi lozim bo‘lgan tarbiyachilar ham bor.

Xulosa qilib aytganda, bolalar nutqini takomillashtirishda rivojlanish markazlarida olib borilayotgan mashg‘ulotlar samaradorligi oshishi kerak. Chunki samarali mashg‘ulot orqali bola o‘rgatilgan bilimlarni xotirasida tez va mustahkam saqlaydi. Shuningdek, bu mashg‘ulotlar orqali bolalarning har bir kuni, har bir soati qiziqarli va maroqli o‘tadi. Zero, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirib, har tomonlama yetuk va barkamol etib tarbiyalash, tarbiyachi-pedagoglarning ustuvor vazifalaridan biridir.

#### **Foydalangan adabiyotlar.**

1. Safarov Sh. S. Kognitiv tilshunoslik. –Jizzax: “Sangzor” nashr., 2006. b–16
2. Maxmutazimova Yu.R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi (STEAM ta’lim texnologiyasi asosida) T-2021 yil 38-bet.
3. Yuldasheva D. M. O‘zbek bolalariga xos og‘zaki va yozma matnlarning antropotsentrik tadqiqi. Monografiya. - Farg‘ona: Classic , 2021. – 130 b.
4. Eraliyeva Z. R. “Ertaklarning kognitiv- semantik xususiyatlari”. МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНГИЧ ТА’ЛИМNING DOLZARB MASALALARI: MUAMMO, YECHIMLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI, tom-1. KBK: 74/103(5Ў36) YO‘K: 204.14.752.12. 275 bet.
5. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Sog‘lom bola. – Toshkent: “Hilol” nashr.
6. Axmedova Z, Ayupova M, Xamidova M. Logopedik o‘yin. Toshkent 2013.
7. Eshchanova, G. (2023). Socialization of preschool education. Science and innovation, 2(B1), 173-176.
8. Г. Н. Эшчанова (2021). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ПЕДАГОГИК ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 2 (NUU Conference 1), 82-85.
9. G. Eshchanova (2022). МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR SOTSALIZATSIYASI. Science and innovation, 1 (B8), 561-564. doi: 10.5281/zenodo.7375137
10. G.Eshchanoa (2022)SOCIALIZATION OF REFORMS IN THE SYSTEM OF PRESCHOOL EDUCATION.Science and innovation,1(8) 561-564
11. PRIMARY EDUCATION - THE FOUNDATION OF GENERAL SECONDARY AND HIGHER EDUCATION Kalendarova Zaravshan Kalbaevna Kokand University "Education" Senior Lecturer of the Departmen. International Conference on Humanity, Education and Science London U.K December 15th 2021 conferencezone.org . 330-332.



12. Kalendarova Zaravshan Kalbaevna. (2021). PRIMARY EDUCATION - THE FOUNDATION OF GENERAL SECONDARY AND HIGHER EDUCATION. Conference Zone, 330–332. Retrieved from <https://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/482>
13. Раджапова, З.Т. (2018). Развитие дизайнерских способностей учащихся на уроках прикладного искусства. In Исследование различных направлений современной науки (pp. 225-227).

